

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14740237>

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Chinaliyeva Ayjamal

TDPU doktoranti.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy kompitensiyalarini rivojlantirishning ilmiy asoslari, ijtimoiy-pedagogik ahamiyati, psixologik jihatlari hamda pedagog kompetentligi turlari o'z aksini topgan. Shuningdek, kasbiy pedagogik kompetentlikni rivojlantirish istiqbollari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, kasbiy kompetentlik, ko'nikma, qobiliyat, kasbiy faoliyat, layoqat, malaka.

O'zbekiston Respublikasida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish mamlakat ijtimoiy siyosatining ustuvor masalasi darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz» [1.12].

Bugungi globallashuv hamda inteshratsiyalashuv jarayonlari, OAV ta'sir doirasining kuchayishi ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, uni innovatsion texnologiya, ilg'or tajribalar asosida rivojlantirishni taqozo etmoqda. Ta'lim-tarbiya mamlakat va jamiyatni isloq qilishning muhim omili bo'lsa, o'qituvchi ta'lim jarayonini harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. U nafaqat jamiyatning rivojlanish istiqboli, balki har bir shaxsning alohida

faoliyatini oldindan aniqlaydi va uning istiqboldagi taraqqiyotini belgilaydi. Shu bois mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarga xos kasbiy kompetentlik, uning o‘ziga ijtimoiy-pedagogik ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

«Kompetentlik» tushunchasi ilk bor psixologik tushuncha sifatida shakllanib, keyinchalik pedagogik atamaga aylangan. Psixologiyada kompetentlik «noan’naviy vaziyatlarda shaxsning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, o‘zgalar bilan munosabat va murakkab jarayonlarda mustaqil harakat rejasiga egalikni anglatadi. Pedagogik kompetentlik esa o‘qituvchi tomonidan ta’lim faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanish hamda ularni amalda qo‘llash qobiliyatini anglatadi.

N.A.Muslimov, N.Karimovalar pedagogning kasbiy kompetentligi uning tomonidan bevosita kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun kerak bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda samarali qo‘llay olishini ta’kidlashadi. Olimlarning e’tiroficha, o‘qituvchining kasbiy kompetentligi mutaxassis tomonidan nafaqat alohida bilim, ko‘nikma hamda malakalarning egallanishini, balki o‘zi egallagan mutaxassislik bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini ham o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari pedagogik kompetentlik o‘qituvchining muntazam o‘z ustida ishslashini, yangi axborot va ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o‘z faoliyatiga tatbiq qilib borishini nazarda tutadi [4.17].

Professor S.Matjon pedagogik kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutishi bilan birga uning o‘z bilimlarini doimo boyitib borishi, yangi axborotlarni o‘zlashtirishi, zarur ma’lumotlarni izlab topishi, ularni qayta ishslash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishini anglatishini uqtiradi [6.43].

J.Musaev o‘qituvchi kompetentligini kasbiy faoliyat va uning asosiy obyekti – o‘quvchiga faol munosabatlar tizimini belgilaydigan va shaxsning ma’naviy va

ijtimoiy ehtiyojlari, qarashlari, xulq-atvor motivlari, munosabatlari, ideallarida namoyon bo‘ladigan mafkuraviy pozitsiya sifatida belgilaydi [3.25].

Sh.S.Shodmonovaning fikricha, kasbiy pedagogik kompetentlik o‘qituvchi shaxsiyatining muhim xususiyatlarini tashkil etadigan asosni o‘z ichiga oladi. Kompetentlik o‘z-o‘zini rivojlantirish kasbiy va shaxsiy xususiyatga aylangandan so‘ng, kasbiy motivlarga ta’sir qiladi va ta’lim faoliyati samaradorligini oshiradi. [7.68].

Kasbiy kompetentlik murakkab jarayon, u noaniq vazifalarni bajarish, o‘zaro zid ma’lumotlardan foydalanish noodatiy vaziyatda bilimini qo‘llashni taqozo qiladi. Kasbiy kompetentlik mutaxassisdan mavjud bilimlarini muttasil boyitish, yangi axborotlarni o‘zlashtirish, davr talablarini chuqur anglash, yangi bilimlarni izlash, ularni qayta ishslash va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llashga o‘rgatadi. Oliy ta’lim tizimida pedagoglarning kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog‘liqligi zamonaviy ta’lim texnologiyalari imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish negizida pedagoglar kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish muammoning dolzarbligini belgilaydi.

O‘qituvchining kasbiy kompetentligi quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

– turli sharoitda bilimlarni o‘z o‘rnida va tezkorlik bilan o‘rinli va maqsadli qo‘llay bilish;

– tezkor va eng maqbul qarorni qabul qilishni bilish;

– qo‘yilgan maqsadga erishish uchun barcha imkoniyatdan foydalanish;

– boshqalar bilan o‘zaro optimal munosabatlarni o‘rnata olish;

– milliy va umumbashariy qadriyatlar va axloqiy sifatlarga egalik;

– o‘qitishning yangi usul va texnologiyalarini egallahsga intilish.

Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish talabalardan quyidagi jihatlarni talab qiladi:

– talaba tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, qayta ishslash, amaliy faoliyatda qo‘llay bilish, bunda faollik ko‘rsatish;

- amaliy faoliyatda duch keladigan turli vaziyatlarda mustaqil to‘g‘ri qaror qabul qila olish, ilmiy faktlarni tahlil qilish, umulashtirish, xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ongli bilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, tadqiqotchilik faoliyati, tafakur kengligiga erishish;
- ta’limni individuallashtirish, o‘z uslubiy, texnologik bilish imkoniyatlarini muntazam oshirib borishga yo‘naltirilgan ta’limni yo‘lga qo‘yish [2.71].

Biz olimlarning tadqiqotlari, shaxsiy kuzatishlarimiz asosida pedagogik kompetentlikni murakkab tuzilma sifatida uchta kichik tarkibiy qismlarga ajratdik:

- pedagogning o‘quvchilarga nisbatan moyillik, chidamlilik va o‘zini tutabilishdan iborat shaxsiy qobiliyatları;
- o‘qituvchining o‘quvchilarga ma’lumot uzatish bilan bog‘liq tushuntirish, ifodali nutq, akademik, didaktik qobiliyatları;
- pedagogning muloqot, tashkilotchilik, medi vositalari bilan ishlash, o‘quvchilarga ta’sir qilish, pedagogik takt, bashoratlash qobiliyatları.

B.Pardaev pedagogik kompetentlik majmuiga talabani tushunish qobiliyati, o‘quv materialining qulay taqdimoti, tashkilotchilik qobiliyati; pedagogik takt, tashxis va bashoratlash, o‘quvchilar faoliyatini to‘g‘ri loyihalash qobiliyatini kiritishni tavsiya qiladi [5.73].

O‘qituvchining shaxsiy fazilatlari maktab yoshidagi o‘quvchini rivojlantirish jarayonida asosiy rol o‘ynaydi. Kasbiy yetuklik va o‘z ishiga fidoyilik o‘qituvchining ideal qiyofasini ko‘rsatuvchi eng muhim ikki ustun hisoblanadi. Pedagog sanab o‘tilgan fazilatlardan tashqari insonparvarlik, mehr-oqibat, sabr-toqat, odob-axloq, halollik, mas’uliyat,adolat, fidoyilik, xolislik, o‘zgalarga hurmat, yuksak axloq, hissiy muvozanat, muloqotga bo‘lgan ehtiyoj, o‘quvchilar hayotiga qiziqish, yaxshi niyat, o‘z-o‘zini tanqid qilish, do‘slik, bosiqlik, qadr-qimmat, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, samaradorlik, intizom, mas’uliyat, maqsadni qo‘ya bilish, o‘z kasbiy darajasini muntazam va rejali ravishda oshirish, o‘z ishining sifatini doimiy ravishda oshirishga intilish xislatlarga ega bo‘lishi zarur. Turli tadqiqotlarda bir qator

o‘quvchini tushunish va uning rivojlanishini boshqarish, kuzatish, erkin fikrlash, analitik va sintetik ishlarni bajarish kabi pedagogik kompetnsiyalarni ajratib ko‘rsatiladi. Olimlar kuzatish, tasavvur, takt, diqqatni taqsimlash, talabchanlik ko‘nikmalarini pedagogning muhim qobiliyati sifatida qarashadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy-shaxsiy kompitensiyalarni rivojlantirish milliy pedagogikamizning dolzar muammolaridan biri hisoblanadi. Uni ijobjiy hal qilish millat, davlat va jamiyat tarqqiyotining muhim omili sanaladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлашюрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.–Т.: «Ўзбекистон», 2017. –12-6.
2. Ишмуҳамедов Р., Мирсолиева М., Ўқув жараёнида инновацион таълим технологиялари. – Т.: «Fan va texnologiya», 2014. -71-б.
3. Мусаев Ж. Ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш салоҳиятини ривожлантириш. Монография. . –Т.: Шарқ, 2010. –25 б
4. Муслимов Н.А., Каримова Н. Касб таълими ўқитувчиларининг амалий компетентлигини шакллантириш технологияси.–Т.: «Иқтисодиёт», 2012.17-б.
5. Пардаев Б.У. Компоненты и факторы социализации школьников. Вестник науки и образования № 9(87). Часть 3. 2020. С-73.
6. Сафо Матжон. Китоб ўқиши биласизми?–Тошкент: Ўқитувчи, 1993.–43-6.
7. Шодмонова Ш.С. Талабаларда мустақиллик тафаккурини шакллантириш ва ривожлантириш. Монография. – Т.: 2001. – 68 б.